

**SIGIRLAR MASTITIGA MIKROBIOLOGIK USULDA
DIAGNOZ QO‘YISH, DAVOLASH VA PROFILAKTİKASINI
TAKOMILLASHTRISH**

Shakilov U.N

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti magistranti

Bazarov Q.K

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti v.f.n., dotsenti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Qoraqalpog‘iston respublikasi sharoitida qoramollarda mastit kasalligi uchrash darajasi va mastit kasalligi turlarini davolash, o‘ldini olish bo‘yicha tadqiqot natijalari berilgan.

***Kalit so‘zlar:** mastit, zardobli; fibrinli, kataral, stafilokokk, streptokokk, diplokokk, escherichia coli.*

Kirish. Respublikamizda chorvachilik tarmog‘ini jadal rivojlantirishni zamonaviy va innovasion uslublarini joriy etish, mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish va turlarini kengaytirish, shuningdek aholini mahaliy sharoitda ishlab chiqarilgan sifatli va arzon chorva mahsulotlari sut-go‘sht bilan uzluksiz ta‘minlash hamda chorvachilikga ixtisoslashgan korxonalarini davlat tamonidan qo‘llab-quvvatlash maqsadida Prezidentimiz tomonidan 2020-yil 29-yanvardagi PQ 4576-son qarorida ko‘rsatib o‘tilgan unga ko‘ra chorvachilik bilan shugullanuvchi fuqarolar bilan hamkorlikni taminlash chorvachilikning barcha tarmoqlari va naslchilik sohasini rivojlantirishni olib borish va muammolarni yechimini topish mahsuldorlikni oshirish,

ozuqabop ekinlarni yetishtirish mahsulot ishlab chiqarish va naslchilik seleksiya amaliyotida yangi ilmiy-tadqiqot natijalari va innovasion ishlanmalarni yo'lga qo'yish borasida ko'rsatmalar berilgan. Davlatimiz tomonidan chiqariladigan qator farmon va qarorlari, chorvachilik mahsulotlarini ko'paytirishga qaratilgan bo'lib, ayniqsa, respublikamiz aholisini sifatli go'sht va sut bilan ta'minlash hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, mahsuldor sigirlar orasida mastit kasalliklarini ko'plab uchrashi oqibatida fermer xo'jaliklari va aholiga qarashli sigirlarda mahsuldorlikni keskin pasayishi, ayniqsa sut va sut mahsulotlarini keskin kamayishiga, buzoq bosh sonini kamayishi, yuqori mahsuldor hayvonlardan foydalanish muddatlarini qisqarishi hisobiga aholi va fermer xo'jaliklari katta iqtisodiy zarar ko'rmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mastit sut bezining yallig'lanishi bo'lib, mexanik, termik, kimyoviy va biologik omillarning ta'sirida rivojlanadi. A. P. Studensov mastitlarning kechishi va oqibati patologik jarayonning joylashishi va qo'zg'atuvchisining patogenlik xususiyatlariga qanchalik bog'liq bo'lsa organizmning holati va sut bezi to'qimasining reaktivligiga ham shunchalik bog'liq deb ta'kidlaydi. Mastitlar laktasiya va sutdan chiqarilgan davrlarda uchrashi mumkin. [2].

Sigirlarning mastit kasalligi ko'pincha sog'in sigirlar tug'ish vaqtida va sutdan chiqarishda kuzatiladi. Kasallik qo'zg'atuvchilari stafilokokk, streptokokk, diplokokk, escherichiacoli, viruslar va zamburug'lar hisoblanadi. Mastitning asosiy sabablari yelinning jarohatlanishi, tozalikga rioya qilmaslik, sog'ishni tog'ri tashkillashtirmaslik va hokozalar. Bundan tashqari oqsil, aktinomikoz kasalliklari ham mastitga sababchi bo'ladi.

Sog'in sigirlar orasida mastitlar keng tarqalgan bo'lib, ayrim xo'jaliklarda kasallanish ko'rsatgichi 30-40% ga yetishiga qaramasdan qoramolchilik xo'jaliklarida, shu jumladan xususiy va fermer xo'jaliklari sharoitida ushbu kasalliklarini davolash va oldini olish tadbirlari to'liq o'rganilmagan [4].

Sigirlarda yelinni yallig‘lanishi ko‘pincha subklinik mastit shaklida kechadi. U sigirlarda sog‘im davrida 21,4%, sutdan chiqarishga yaqin 24,6%, sutdan chiqarilgan davrda 28,9% va yangi tuqqan davrda 23,4% sigirlarda uchraydi. Bu davrlarda klinik nomoyon bo‘ladigan mastit 4,6-6,2% sigirlarda uchragan [3].

Mastitlarning A.P. Studensov bo‘yicha tasniflanishi boshqalariga nisbatan maqul hisoblanadi 1) zardobli mastit; 2) kataral mastit (sut sisternasi, sut yo‘llari va alveolalar kataral yallig‘lanishi); 3) fibrinli mastit; 4) yiringli mastit (yiringli-kataral mastit, yelin absessi va yelin flegmonasi); 5) qonli mastit; 6) spesifik mastitlar (yelin oqsili, aktinomikozi, yelin sili); 7) Mastitning asoratlari (yelin indurasiyasi, yelin gangrenasi) [1].

Sigirlarning sut mahsuldorligi pasayishi, uning sanitariya-texnologik sifatining pasayishi bilan o‘tadigan kasalliklari orasida sut bezlarining yallig‘lanishi - mastitlar asosiy o‘rinni egallaydi. Mastit bilan sigirlarning kasallanishi 28-30% tashkil etib, ulardan yillik olinadigan sut mahsuldorligi 15-20% gacha kamayadi. Yelinning jaroxatlangan yelinidan sog‘ilgan sutning tarkibida somatik xujayralar (SX), oqsil, xloridlar miqdori ko‘payadi, ishqoriyligi, zichligi, bakterial zararlanishi ortadi va yog‘, laktozalar, quruq yog‘sizlangan moddalar miqdori va bakterisid faolligi kamayadi [5].

Tadqiqotning maqsadi. Sigirlar mastitini tarqalishi va sabablarini o‘rganish. Mikrobiologik tekshirish usullaridan foydalanib diagnoz qoyish va davolash.

Bakteriologik tekshirish. O‘tkazishda sut va leykositar proba uchun olingan sut cho‘kmalari ishlatiladi. Yelinning har qaysi choragidan steril idishga 50-100 ml miqdorida sut sog‘ib olinadi. Sutni sog‘ib olishdan oldin yelin terisi yuvilib, keyin 70%-li spirt bilan dezinfeksiyalanadi va birinchi porsiya sut sog‘ib tashlanadi. Keyin, sog‘ib olingan sut sinamalari veterinariya laboratoriyalariga tekshirish uchun

jo‘natiladi. Bakteriologik tekshirishlar natijasi nafaqat mastitni aniqlash uchun, balki yelindagi mikroorganizmlarning antibiotiklarga sezuvchanligini aniqlashda ham ahamiyatlidir.

1-jadval

T/r	Fermer xo‘jaliklar nomi	Qoramollar soni	Mastit kasalligi	
			soni	%
1	«ChorvaServisAmudaryo» MCHJ	63	5	8
2	«Amudaryobaxtqushi»	31	3	9,5
3	«Sariuxa-Gulsin»	40	3	7,5
4	«AndijonNukus»	53	4	7,5
5	Aholi qarmogi	60	2	3
Jami:		247	17	6,88

1-jadvalga qaraydigan bo‘lsak «Chorva Servis Amudaryo» MCHJ fermer xo‘jalidagi jami 63 ta qoramoldan 5 (8%) ta sigirda «Amudaryo baxt qushi» fermer xo‘jalidagi jami 31 ta qoramoldan 3 (9,5%) ta sigirda, «Sariuxa-Gulsin» fermer xo‘jalidagi jami 40 ta qoramoldan 3 (7,5%) ta sigirda, «Andijon Nukus» fermer xo‘jalidagi jami 53 ta qoramoldan 4 (7,5%) ta sigirda va aholi qarmogidagi jami 60 ta qoramollardan 2 (3%) tasida mastit kasalligi aniqlandi.

XULOSA:

- sigirlarning subklinik mastit bilan kasallanishini kuniga tekshirib borish.
- podadagi hamma sigirlarni har oyda bir marta subklinik mastitga ekspress testlar yordamida tekshirish.
- bug‘oz sigirlarni sog‘indan chiqarilishining 10-15-kunida va tug‘ishiga 10-15 kun qolganda bir marta subklinik mastitga ekspress testlar yordamida tekshirish.
- laborator usulda sut tarkibidagi somatik hujayralarni aniqlash talab etiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Студенцов А.Н., Шупилов В.С., Субботин Л.Г, Преображенский О.Н. *Ветеринарное акушерство, гинекология и биотехника размножения*, 7-ое изд. М.: “ВО Агрпромиздат”, 1999

2. Eshburiyev B.M., Eshburyiev S.B., Jumanov S.M. *Veterinariya akusherligi fanidan amaliy laboratoriya mashg‘ulotlar. O‘quv qo‘llanma*, Samarqand, -2020.

3. <http://vak.ed.gov.ru/common/img/uploaded/files/vak/announcemens/Veterinar/2009/15-06/KobaIS.doc>.

4. <https://vetvo.ru/subinvolyuciya-matki.html> Ветеринарная служба
Владимирской области © vvv.vetvo.ru